



Nurullayeva Umida Nuriddinovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

OILAVIY NIZOLARNING OLDINI OLISH: HUQUQIY ASOSLAR, PROFILAKTIKA HAMDA HAL ETISH MEKANIZMLARI TAHLILI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.254>

Annotatsiya. O'zbekistonda bugungi kunda nizoli oilalarni aniqlash va oilaviy nizolarni bartaraf etish mexanizmlari takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi oilaviy nizolarning oldini olish tizimida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, xorijiy mamlakatlar tajribasi, ekspertlarning fikrlari va sotsiologik tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, malakali mutaxassislar yetishmasligi, madaniy stereotiplar (jamoatchilik befarqligi hamda salbiy gender stereotiplarini qo'llab-quvvatlashi), idoralararo muvofiqlashtirishdagi ba'zi kamchiliklar oilaviy nizolarni aniqlash va hal etish jarayonida ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani keltirilgan.

Tayanch so'zlar: nizoli oilalar, oilaviy nizolarni bartaraf etish mexanizmlari, hamkorlik, mahalla fuqarolar yig'ini yettiligi, mediatsiya, jamoatchilik ishtiroki va nazorati, psixologik va huquqiy yordam, ishonch telefonlari, ijtimoiy himoya, oilaviy nizolarni yashirish, salbiy gender stereotiplari, an'analar, oilaviy qadriyatlar, stigmatizatsiya, jamoatchilik nazorati va ishtiroki.

Аннотация. В Узбекистане в настоящее время механизмы выявления конфликтных семей и разрешения семейных конфликтов проходят процесс совершенствования. Целью данного исследования является выявление существующих проблем в этой системе и определение путей их устранения. В ходе исследования были проанализированы правовые документы, статистические данные, опыт зарубежных стран, мнения экспертов и результаты социологических исследований. Согласно полученным результатам, нехватка квалифицированных специалистов, культурные стереотипы (общественное безразличие и поддержка негативных гендерных стереотипов), а также некоторые недостатки в межведомственной координации оказывают негативное влияние на эффективность работы в процессе выявления и разрешения семейных конфликтов.

Ключевые слова: конфликтные семьи, механизмы разрешения семейных конфликтов, сотрудничество, махаллинская семерка, медиация, общественное участие и контроль, психологическая и юридическая помощь, телефоны доверия, социальная защита, сокрытие семейных конфликтов, негативные гендерные стереотипы, традиции, семейные ценности, стигматизация, общественный контроль и участие.

Annotation. In Uzbekistan, the mechanisms for identifying conflict-prone families and resolving family conflicts are currently being improved. The purpose of this study is to identify existing challenges within this system and propose ways to address them. The research involved the analysis of legal documents, statistical data, international best practices, expert opinions, and the results of sociological studies. The findings reveal that a shortage of qualified specialists, cultural stereotypes (including public indifference and the reinforcement of negative gender norms), and weaknesses in interdepartmental coordination negatively impact the effectiveness of efforts to detect and resolve family conflicts.

Keywords: conflict-prone families, family conflict resolution mechanisms, interagency cooperation, "mahalla seven," mediation, public participation and oversight, psychological and legal assistance, helplines, social protection, concealment of family conflicts, negative gender stereotypes, traditions, family values, stigmatization.

Kirish. O‘zbekistonda oila jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinadigan asosiy ijtimoiy institut sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Qomusimizning 76-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir¹. Shu bilan birga, nikoh an’anaviy o‘zbek oilaviy qadriyatlari, er-xotinning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi belgilangan.

Oila institutining jamiyatdagi bunday fundamental maqomiga qaramay, ayrim holatlarda oilaviy nizolar va kelishmovchiliklar muhim ijtimoiy muammo sifatida kuzatilmoqda². 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida O‘zbekistonda jami 10 244 241 ta oila ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 190 346 taga, ya’ni 1,89 foizga o‘sganini ko‘rsatadi. Ushbu davrda oilaviy ajrim bilan bog‘liq 35 847 ta nizoli oila qayd etilgan³. Ushbu statistik ma’lumotlar oila barqarorligini ta’minlash uchun samarali yordam berish (aralashuv) mexanizmlari zarurligini asoslaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar murakkab dinamikaga ega. Bir tomondan, amalga oshirilayotgan chuqur huquqiy va institutsional islohotlar xotin-qizlar farovonligi, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Islohotlar xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tengligini ta’minlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishga yo‘naltirilmoqda.

Ikkinchi tomondan esa an’anaviy o‘zbek oilaviy qadriyatlariga kuchli urg‘u berilishi ma’lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki asosiy hisoblangan ayrim an’anaviy qadriyatlar ba’zan salbiy gender stereotiplari bilan kesishadi hamda o‘zlari hal qilishga chaqirilgan muammolarni keltirib chiqarishi yoki kuchaytirishi mumkin. Misol uchun, oilaning ichki ishlariga aralashmaslikni

rag‘batlantiruvchi yoki yordam so‘ragan oila a’zosini ayblovchi (stigmatizatsiya) madaniy qarashlar oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikni aniqlash, uning oldini olishni qiyinlashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan oilaviy nizolarni aniqlash hamda bartaraf etishda samarali yechimlarni ishlab chiqishda milliy shart-sharoitlarni inobatga olish, zamonaviy himoya mexanizmlarining ijobiy an’analarini hurmat qiluvchi, bir vaqtning o‘zida salbiy stereotiplarga qarshi kurashuvchi madaniy sezgir yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun qonunlar bilan bir qatorda jamoatchilikning ongini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar ham zarur.

Usullar va manbalar. Tadqiqot ishida oilaviy nizolarni bartaraf etish va oila institutini mustahkamlash sohasidagi O‘zbekiston amaliyotini o‘rganish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Mazkur maqsadga erishish uchun bir qator manbalarga murojaat qilindi.

Tadqiqotning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar va boshqa tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi. Oila, xotin-qizlar va bolalar masalalari bo‘yicha vakolatli idoralar taqdim etgan statistik ma’lumotlar chuqur tahlilga tortildi. Shuningdek, oilaviy nizolarni hal etish, oilani qo‘llab-quvvatlash va bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida ijobiy natijalarga erishgan davlatlar (xususan, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Yaponiya)ning tajribasi o‘rganildi.

Mahalliy mutaxassislarning ilmiy ishlari va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallar ham tahlil qilindi. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlar, oilaviy mojarolar, ajrashishlar, bolalar huquqlari va shunga oid masalalar bo‘yicha Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Bugungi kunda O‘zbekistonda mahalla instituti oilaviy nizolarni aniqlash hamda ularning muammolarini hal etishda markaziy o‘rin egallamoqda. Tarixan mahallalardagi yoshi ulug‘ insonlar, kekxa otaxon va onaxonlar oilalardagi kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal etishda muhim o‘rin egallab kelgan. Ushbu an’ana

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>

² Ajrimlarning oldini olish oilalar mustahkamligi garovidir // https://uza.uz/oz/posts/ajrimlarning-oldini-olish-oilalar-mustahkamligi-garovidir_693957 (murojaat qilingan sana: 23.05.2025).

³ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari // <https://stat.uz/uz/>

hozirda nafaqat azaliy turmush tarzining bir qismi, balki huquqiy jihatdan qonuniylashtirilgan amaliyot hisoblanadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini notinch hamda muammoli oilalarni aniqlashda manzilli ro'yxatlarni shakllantirish, ushbu oilalarda sog'lom muhitni yaratish maqsadida tushuntirish ishlari olib borish faoliyatida asosiy bo'g'in hisoblanadi. Hozirda mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlarida yetti nafar xodim (mahalla raisi, kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashuvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy himoya xodimi, soliqlarni muvofiqlashtiruvchi inspektor) faoliyat yuritib, mahalla raisi bu jamoaning ishlarini yo'naltirib, muvofiqlashtirib boradi.

Mahalla fuqarolar yig'ini o'z faoliyatini hudud inspektori hamda oila va xotin-qizlar bo'limi nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik olib boradi. Shuningdek, sud va FHDYO kabi organlardan muammosi bor hamda notinch oilalar borasida ma'lumotlar olinadi.

Mahalla institutining o'ziga xos jihati uning an'anaviy jamoatchilik nazorati hamda rasmiy davlat funksiyalarini o'zida mujassamlashtirganida namoyon bo'ladi. Bu holat bir jihatdan nizoli oilalarni erta aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan mahalla instituti qo'llab-quvvatlaydigan an'anaviy qarashlar tufayli cheklashi ham mumkin.

Masalan, maxfiylikni va oilaning ichki ishlariga aralashmaslikni rag'batlantiruvchi normalar ma'lumotlarning to'liq oshkor etilishiga to'sqinlik qiladi. Shu o'rinda nizoli oilalarni aniqlash orqali rasmiy mezonlarni ishlab chiqish, standartlashtirish ehtiyoji borligini kuzatish mumkin. Faqat shu yo'l bilan nizoli oilalarni subyektiv fikr asosida emas, balki izchil tarzda nazorat qilish va ular bilan ishlash imkoniyati yaratiladi. Bu mezonlarni standartlashtirish va mahalla faollarini murakkab oilaviy nizolarni (ayniqsa yashirin zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lganlarini) aniqlashga o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Butun dunyoda psixologik xizmatlar oilaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish, oiladagi nizolarni hal qilish, shuningdek, ajrashishga olib keladigan salbiy omillarni aniqlashda tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiya tashabbusi bilan tashkil etilgan "ishonch telefonlari" oilaviy nizolar

bo'yicha murojaatlarni qabul qilgan holda, ularga huquqiy hamda psixologik maslahatlar berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, Oila va xotin-qizlar markazlari murojaat etuvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirmoqda.

Ishonch telefoni hamda psixologik yordam xizmatining mavjudligi jamiyatda nizoli oilalalar muammolarini hal etishda psixologik yordamga bolgan ehtiyojning tan olinishidan dalolat beradi. Shuningdek, so'rovlar natijalari ayrim masalalarda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlar borligini namoyon qildi. Xususan, soha ekspertlarining har ikkinchisi amaliyotchi oilaviy psixologlar saviyasining yetarli darajada emasligini ta'kidlab o'tgan. Bu holat oilalarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi mutaxassislar saviyasi va xizmatlar sifati borasida jiddiy muammolarga uchrayotganini ko'rsatmoqda.

1998-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga solish va nizolarni hal etish uchun asosiy huquqiy baza hisoblanadi. So'nggi yillarda ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha sezilarli qadamlar tashlandi. 2023-yil 11-aprelda uy zo'ravonligi uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni joriy etgan qonunning qabul qilinishi muhim yutuq bo'ldi. Ushbu qonun uy zo'ravonligining ta'riflarini o'z ichiga olgan holda u bilan bog'liq turli xil huquqbuzarliklar uchun jazolarni kuchaytirishni nazarda tutadi. Bosh prokuratura ayollar huquqlari va ularni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi maxsus bo'limga ega. Sudlar nikoh munosabatlarining tabiati va kelishmovchilik sabablari, jumladan, Ajrashish holatlarining haqiqiy holatlarini diqqat bilan tekshirish majburiyatini olgan.

2023-yilda 203 nafar shaxs Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi (oila-maishiy zo'ravonlik) bilan sudlangan, 8 928 nafar shaxs esa uy zo'ravonligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan⁴.

Maishiy zo'ravonlikka qarshi maxsus qonun hujjatlarining qabul qilinishi ijobiy qadam sifatida huquqiy himoya masalasiga e'tibor qaratilayotganini namoyon etadi. Lekin oilaviy zo'ravonlikni jinoiy

⁴ O'zbekistonda 2023-yilda oiladagi zo'ravonlik bo'yicha 9000 dan ortiq shaxs jazolandi // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/12/domestic-violence/> (murojaat qilingan sana: 03.06.2025).

javobgarlikka tortishga bo'lgan dastlabki qarshiliklar va himoya orderlari kutilgan natijani bermayotgani haqidagi faollarning tashvishlari qonuniy maqsadlar va amaliyotdagi qo'llanish yoki jamiyatning bu masalaga tayyorligi o'rtasida farq mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda nizolarni hal qilishning muqobil usuli – mediatsiya 2018-yilning 12-iyunida qabul qilingan bo'lib, 2019-yil 1-yanvarda kuchga kirgan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun oila-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga bevosita tatbiq etiladi.

Uy zo'ravonligi to'g'risidagi yangi qonunlarning amalga oshirilishini doimiy ravishda kuzatib borish juda muhim. Bu sudyalari, prokurorlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini uy zo'ravonligining nozik tomonlariga o'rgatish, himoya orderlarining samarali qo'llanishini ta'minlash va jabrlanuvchilarning huquqiy yordam so'rashiga to'sqinlik qiladigan madaniy to'siqlarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda mediatsiya nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida an'anaviy sud jarayonlariga nisbatan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Bularga nizolarni hal qilishning qisqa muddatlari (ko'pincha 30 kun ichida, ammo yana 30 kunga uzaytirish imkoniyati ham taqdim etilishi mumkin), maxfiylik (ma'lumot yozma roziliksiz oshkor etilmaydi) va o'zaro maqbul kelishuvga erishish imkoniyati kiradi. Mediatsiya mol-mulkni bo'lish va meros masalalari kabi turli oilaviy nizolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin. Jarayon ixtiyoriy bo'lib, tomonlar istalgan vaqtda undan chiqib ketishi mumkin.

O'zbekistonda mahalla tizimidan foydalanish, mahalla rahbarlari va faollariga mediatsiya usullari bo'yicha rasmiy o'qitishni ta'minlash, an'anaviy nizolarni hal qilish usullarini mediatsiyaning zamonaviy tamoyillari bilan birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Biroq uy zo'ravonligi holatlarida mediatsiyaning mosligini tanqidiy baholash, jabrlanuvchilarning xavfsizligi va imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlash maqsadida bunday holatlarni majburiy mediatsiyadan chiqarib tashlash uchun skrining mexanizmlari (Avstraliya va Kanadadagi kabi)ni joriy etish lozim.

O'zbekiston sud tizimiga mediatsiyani yanada yaqinroq integratsiya qilish uchun Germaniya modelini inobatga olish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, sud jarayoni boshlanganidan so'ng,

"mediator-sudya"lar vositachilik qilishlari mumkin. Bu mediatsiyani shunchaki muqobil usul emas, balki sud jarayonining ajralmas qismiga aylantiradi.

Shuningdek, mediatsiyaning ixtiyoriyligi va tomonlarning istalgan vaqtda undan chiqish huquqini ta'minlaydi. Mediatorlar qat'iy betaraflilikni saqlab, aybdorlarni qidirishdan ko'ra yechimlarni topishga e'tibor qaratishi kerak. Mediatsiya jarayonida o'tmishdagi xatolarga emas, balki kelajakdagi eng yaxshi yechimga intilish muhim. Tomonlarning ochiqdagi va jarayon tamoyillariga sodiqligi o'zaro kelishuvga erishishga yordam beradi. Shuning uchun O'zbekiston sudlarida mediatsiyadan dastlabki qadam sifatida foydalanishni rag'batlantirgan holda, "mediator-sudya"lar tizimini joriy etish, tomonlarning huquqlari va jarayon haqida to'liq xabardorligini ta'minlash, mediatorlar uchun aniq axloqiy yo'riqnomalar ishlab chiqish, betaraflilik va kelajakka yo'naltirilganlikni ta'kidlash tavsiya etiladi.

O'zbekiston uchun Yaponiya tajribasi ham qiziqarli bo'lishi mumkin⁵. Unda oilaviy nizolarning aksariyati uchun mediatsiya sudgacha bo'lgan majburiy bosqich hisoblanadi. Ushbu tizim yapon madaniyatining uyg'unlik va konsensusga bo'lgan intilishini aks ettirib, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va oilaviy munosabatlarni saqlab qolishga qaratilgan.

Yaponiya oilaviy sudlari huquqshunoslar va mutaxassislar (masalan, oilaviy ishlar bo'yicha sud tergovchilari)ni jalb qilgan holda huquqiy, ijtimoiy va psixologik omillarni hisobga oluvchi kompleks yechimlarni taqdim etadi. Sud muhokamalarining maxfiyligi (odatda, yopiq eshiklar ortida o'tkaziladi) ochiq muloqotga yordam beradi. Erta bolalik ta'limida qo'llanadigan "aralashmaslik"ni nazarda tutuvchi "mimamoru" yondashuvi bolalarga mayda nizolarni mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarda ijtimoiy va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu yondashuvni ota-onalik yo'riqnomasi uchun moslashtirish ham mumkin. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sudlariga yuklamani kamaytirish va tinch yechimlarni rag'batlantirish maqsadida sudgacha bo'lgan oilaviy nizolar uchun mediatsiyani Yaponiyadagi kabi majburiy birinchi

⁵ The Japanese "hands-off" approach to conflict management [Electron manba]. URL: www.careforkids.com.au/child-care-provider-articles/article/986/the-japanese-hands-off-approach-to-conflict-management

qadam sifatida ko‘rib chiqish, shuningdek, oilaviy sudlarda yoki mahalla tuzilmalarida huquqshunoslar, psixologlar va ijtimoiy xodimlarni o‘z ichiga olgan fanlararo guruhlarini joriy etish tajribasini qisman o‘zlashtirish mumkin.

Germaniyaning Yoshlar ishlari bo‘yicha xizmati (Jugendamt) tajribasi ham e‘tiborga molik⁶. Ushbu xizmat ota-onalarga maslahatlar berish (jumladan, ajrashishni rejalashtirayotganlarga), bolalarni parvarish qilish xizmatlarini topishda yordam berish, ota-onalar uchun kurslar tashkil etish va yolg‘iz ota-onalarga moliyaviy yordam ko‘rsatish kabi keng ko‘lamli xizmatlarni taqdim etadi. Xizmat bolalarga nisbatan beparvolik yoki zo‘ravonlik holatlarini faol ravishda tekshiradi. Maktablar, shifokorlar va politsiya kabi boshqa muassasalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Xizmat bolalar, yoshlar va ota-onalar uchun anonim va bepul ishonch telefonlarini taklif etadi. “Oilani mustahkamlash dasturi” kabi dasturlar oiladagi himoya jarayonlarini kuchaytirish orqali giyohvandlik va xatti-harakatlarning erta oldini olishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda ijtimoiy xodimlarning rolini kuchaytirish va tuman darajasida oilaviy maslahat, ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash va bolalarni himoya qilish bo‘yicha kompleks xizmatlarni taklif qiluvchi (Germaniyaning yoshlar va oila ishlari bo‘yicha idorasi – Jugendamt misolida) yaxshi moliyalashtirilgan “Oila va bolalar ishlari bo‘yicha xizmat”ni tashkil etish, inqirozga qarshi chora ko‘rish va ma‘lumot berish uchun malakali mutaxassislar bilan milliy ishonch telefonlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Garchi Germaniya va Yaponiya rasmiy integratsiya hamda uyg‘unlikda madaniy ustunlikning afzalliklarini namoyish etsa-da, Indoneziyaning uy zo‘ravonligi bilan bog‘liq tajribasini muhim ogohlantirish sifatida ko‘rib chiqish zarur. Demak, mahalliy o‘ziga xos jihatlarni, kuchlar muvozanati va nizolarning o‘ziga xosligi (masalan, mol-mulk nizolariga qarshi zo‘ravonlik)ni hisobga olmagan holda modellarni oddiygina ko‘chirish aks ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston rasmiy mediatsiyaning samaradorligi va maxfiyligini mahalla jamoasining kuchli tomonlari bilan birlashtirgan mediatsiyaning gibril modelini ishlab chiqishi, shu bilan birga, skrining va himoyaning maxsus choralari bilan uy zo‘ravonligi kabi muammolarni hal qilish uchun uni tanqid

ravishda moslashtirishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, mediatorlarni madaniy sezgirlikka o‘rgatish birinchi darajali ahamiyatga ega.

Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya) homiladorlikdan tortib, erta bolalikkacha izchil, universal parvarishni ta‘minlaydigan, hamjamiyat tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradigan va boshqa xizmatlarga yo‘nalishni taklif qiladigan universal oila markazlarini yaratgan⁷. Shaharsozlik va mehnat amaliyoti kabi barcha qarorlarda bolaning huquqlari va uning eng yaxshi manfaatlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Ijtimoiy chetlanish xavfi ostida bo‘lgan oilalarni aniqlash hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faol chora-tadbirlarni amalga oshirishda bolalar ehtiyojlari bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lgan ijtimoiy xodimlar yordam ko‘rsatadilar. Ijtimoiy xizmatlar ko‘ngilli yordamga ustunlik beradi hamda majburiy choralar faqat zarurat bo‘lganda qo‘llaniladi. Bola parvarishi ta‘tillari (jumladan, otalar uchun), arzon va yuqori sifatli bola parvarishi xizmatlari keng tarqalgan bo‘lib, ota-onalarga ish va oilaviy hayotni muvofiqlashtirish imkonini beradi. O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati doirasida Oila markazlarining keng ko‘lamli tarmog‘ini yaratish taklifi ilgari surilmoqda. Ushbu markazlar oilaviy hayotning turli jabhalariga kompleks yondashuvni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, onalar va bolalar salomatligi, erta bolalik ta‘limi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi muhim sohalarida integratsiyalashgan xizmatlarni taqdim etadi.

Xulosa. Bugungi kunda O‘zbekistonda nizoli oilalarni aniqlash hamda oilaviy nizolarni bartaraf etish mexanizmlari jadal takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston oilaviy nizolarni hal qilish uchun asosiy mexanizmlarni yaratdi. Jumladan, mahalla tizimi, psixologik xizmatlar va rivojlanayotgan huquqiy baza mavjud bo‘lib, qator islohotlarni boshdan kechirmoqda. Biroq mazkur sa‘y-harakatlarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi, sukut saqlash va stigmatizatsiyaning abadiylashtiradigan chuqur ildiz otgan madaniy me‘yorlar, shuningdek, idoralararo muvofiqlashtirish

⁶ Youth Welfare Office. – URL: www.handbookgermany.de/en/youth-welfare-office (murojaat qilingan sana: 16.05.2025).

⁷ The Swedish social services work for the best interests of children. – URL: www.socialstyrelsen.se/om-socialtjansten/other-languages/engelska/the-swedish-social-services-work-for-the-best-interests-of-children/ (murojaat qilingan sana: 15.05.2025).

va qonunchilikni amalga oshirishdagi muammolar bilan ba'zi holatlarda cheklanmoqda.

Oilani himoya qilish uchun huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish va mustahkamlash, qonunlarning har tomonlama va samarali qo'llanishini ta'minlash, xususan, himoya orderlarining amaliyotda joriy qilinish qoidalari va holatini qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, ushbu mexanizm jabrlanuvchilarning real himoyasini ta'minlab, zo'ravonlik holatlarida yarashtirishga majburlash amaliyotiga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, aybdorlar javobgarligini ta'minlashi kerak.

Oilaviy nizolarni samarali hal qilish va oila institutini mustahkamlash uchun O'zbekiston yanada yaxlit, faol va integratsiyalashgan yondashuvni

qabul qilishi kerak. Bu nafaqat huquqiy himoyani kuchaytirishni, balki psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun inson kapitaliga katta sarmoya kiritishni, ta'lim va xabardorlikni oshirish orqali madaniy o'zgarishlarga ko'maklashishni, shuningdek, idoralararo hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston mediatsiya instituti orqali oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va bolalarni himoya qilish sohasida ilg'or xalqaro tajribani o'rganib, barcha oila a'zolarining, ayniqsa, ayollar va bolalarning farovonligini ustuvor vazifa sifatida belgilaydigan hamda kelajak avlodlar uchun barqaror va uyg'un jamiyatni ta'minlaydigan barqaror tizimni yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ajrimlarning oldini olish oilalar mustahkamligi garovidir // https://uza.uz/oz/posts/ajrimlarning-oldini-olish-oilalar-mustahkamligi-garovidir_693957 (murojaat qilingan sana: 23.05.2025)
2. "Oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish" mavzusi bo'yicha sotsiologik tadqiqot natijalari to'g'risida // <https://moiti.uz/ru/press-center/news/522> (murojaat qilingan sana: 30.04.2025).
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi // <https://lex.uz/mact/-104720> (murojaat qilingan sana: 30.04.2025).
5. O'zbekistonda 2023-yilda oiladagi zo'ravonlik bo'yicha 9000 dan ortiq shaxs jazolandi // <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/12/domestic-violence/> (murojaat qilingan sana: 03.06.2025).
6. O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik jinoiy javobgarlikni belgilash to'g'risidagi modda muhokamaga qo'yilmadi // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/01/26/zoravonlik/> (murojaat qilingan sana: 30.05.2025)
7. Oilaviy nizolar «Ishonch telefoni» orqali hal qilinmoqda [Elektron manba]. URL: www.kun.uz/news/2020/05/02/oilaviy-nizolar-ishonch-telefoni-orqali-hal-qilinmoqda (murojaat qilingan sana: 13.05.2025)
8. Oilaviy nizolar kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish [Elektron manba]. URL: <https://gov.uz/oz/gallaorol/news/view/58898> (murojaat qilingan sana: 30.04.2025)
9. Resolving Conflicts in Asia [Elektron manba]. URL: www.numberanalytics.com/blog/alternative-dispute-resolution-in-contemporary-asia (murojaat qilingan sana: 23.05.2025).
10. The Japanese "hands-off" approach to conflict management [Elektron manba]. URL: www.careforkids.com.au/child-care-provider-articles/article/986/the-japanese-hands-off-approach-to-conflict-management (murojaat qilingan sana: 12.05.2025)
11. The Swedish social services work for the best interests of children. – URL: www.socialstyrelsen.se/om-socialtjansten/other-languages/engelska/the-swedish-social-services-work-for-the-best-interests-of-children/ (murojaat qilingan sana: 15.05.2025)
12. Youth Welfare Office [Elektron manba]. URL: www.handbookgermany.de/en/youth-welfare-office (murojaat qilingan sana: 16.05.2025).
13. Кризисная помощь - nemolchi.uz [Elektron manba]. URL: <https://nemolchi.uz/krizisnaja-pomoshh/> (murojaat qilingan sana: 12.06.2025).
14. О медиации в Узбекистане [Elektron manba]. URL: <https://mediation-eurasia.pro/mediacija-v-strane/uzbekistan> (murojaat qilingan sana: 16.06.2025)
15. Роль махалли в Узбекистане ещё более возрастёт [Elektron manba]. URL: <https://www.uzembassy.uk/news/388?language=ru> (murojaat qilingan sana: 30.04.2025)
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari // <https://stat.uz/uz/>